

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARIDA ONA TIMSOLIGA TAVSIF

Maxamadaliyeva Feruza Rasuljon qizi

Guliston davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola taniqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida matonatli ona, muruvvatli ayol obrazini to'laligicha ochib berishga qaratilgan bo'lib, muallifning badiiy mahorati, uslubi, tili kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ona, tarbiya, farzand, ayol, matonat, sabr, mehr, hikoya.

Dunyoning har bir millatida eng ulug' zot, eng aziz siymo bu ONA hisoblanadi. ONA- bu tabarruk so'zni aytish yoki eshitish bilan yuragimizda bexosdan cheksiz mehr paydo bo'ladi. Va har safar vujudimizda onaning munis va mehribon siymosi aks eta boshlaydi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ona timsoli muhim o'rin egallaydi. O'sish, voyaga yetish, tarbiya topish jarayonida onalarning roli beqiyosdir. Muallif ona siymosini nafaqat madaniy va ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan shaxs sifatida balki hayot manbai, mehr, muhabbat va sabr-toqat ramzi sifatida ko'rsatadi. Muallif o'z hissiyotlarini jamlab, xotiralarni eslab asar boshida quyidagicha tavsif beradi: Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun enf aziz inson – onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog'langan. Dunyodagi hamma onalar farzandiga bo'lgan munosabat bobida bir- biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi, aziz Onajonlar!

Atoqli o'zbek yozuvchisi Said Ahmad: "O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang urib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi", - degan yuksak baho beradi.

Qissa bundan bir necha o'n yillar oldin yaratilgan bo'lsa ham hamon kitobxonlar qo'lidan tushmaydi. Negaki, asar qisqa-qisqa hayotiy hikoyalar jamlanmasi bo'lishiga qaramasdan, uning ichida onalarning qanchalik mukammal inson ekanligi bilan bir qatorda o'sha davr voqealari hamda insonlari hayoti fe'l-atvorlari mujassamlangan. Muallif ona siymosini nafaqat madaniy va ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan shaxs sifatida balki hayot manbai, mehr, muhabbat va sabr-toqat ramzi sifatida ko'rsatadi. Asarda ona doimo o'z farzandlari uchun yagona himoya va qo'llab-quvvatlovchi inson

sifatida namoyon bo'ladi. Adib nafaqat o'z onasi, balki, Sepkilli xola, Poshsha oyi, Zebi xola, Acha xola, Habiba buvi, Niso xola obrazlari orqali Sharq ayollari hayotini, ularning naqadar jonkuyar, sabr- qanoatli, mehnatkash, mehribon inson ekanliklari asardagi hikoyalarda o'z aksini topgan.

Misol uchun asarning “Xiyonat” hikoyasi inson ruhiyatidagi murakkabliklar va insoniy tuyg'ularni chuqur tahlil qiladi. Muallif bolalik paytlarida akalari va ularning do'stlari tomonidan aldab ketilgani, maktab davrlarida do'sti o'z aybini unga ag'darib, tuhmat qilgani, talabalik chog'larida esa sevgan qizi va uning onasini ona deb yurgan eng yaqin do'sti tomonidan qilingan xiyonat qilganida muallif qalbining bir burchagida bir nur yilt etdi. “Onang-chi, onang hech qachon xiyonay qildimi senga! Biron marta, aqalli bir marta xiyonat qildimi? Har kim har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim har kimga xioynat qilishi mumkin ammo hech qachon ona o'z farzandiga xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir”. Xiyonat har bir zamonda bor narsa bundan oldin ham keyin ham bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatlarda yupatguvchi, dalda beruvchi, nasihat qiluvchi yagona inson ona bo'ladi.

Qissaning “Ikki afsona” hikoyasida muallifning bolalik yillarida onasining farroshlik ishi bilan shug'ullanganini yodiga oladi. Har kuni sahardan ko'chalarni supurishi akasiga yoqmay qolib, “Oyi, qo'ysangizchi endi shu ishingizni” qabilidagi qarshiligini bildiradi. Onaizor esa bolalarini peshona teri bilan ishlab halol topganlariga katta qilayotgani, halol yedirib, halol ichirayotganini aybi yo'qligi haqida o'g'liga tushuntirish berishi tasvirlari alohida diqqatga sazovordir. O'tkir Hoshimov ko'plab kitobxonlar bilan bo'lgan uchrashuv paytida Musharrafxon degan ayol yozuvchiga: “Bolam, men anavi maktabda farroshman. Sinf xonalarni yuvib, tozalayman. Sening onang ham farrosh bo'lgan ekanlar, joylari jannatdan bo'lsin. Buni men kutubxonadan olgan kitobdan bilib oldim, deb qo'lidagi “Dunyoning ishlari” kitobini ko'rsatadi va mening o'g'lim urushda nobud bo'ldi, o'g'lim o'rniga o'g'il bo'l. Yozuvchi o'g'lim bor deb yubanib yuray”,- deb iltimos qiladi.

Chunki ota-onalar bilishadiki, halol mehnatda halovat bor. Bu muallifning onasining naqadar pok, insofli va halol oqila ayol bo'lganligidan dalolat beradi.

Inson uchun hech bir begona shaxs xoh u do'st bo'lsin xoh yaqin bir shaxs o'z sog'ligidan, jonidan voz kechmasligi aniq, bu hayotda ko'p bora isbotini topgan. Lekin juda ko'p marotaba guvohi bo'lgan holat esa ona farzandi uchun o'z jonidan kechgan holatlardir. O'tkir Hoshimov ham bolaligidagi voqeani eslab qissaga “Gilam paypoq” hikoyasini qo'shadi. Hikoyada qishning izg'irinli, qorli kunlarida onaning yalangoyoq holda bolasini asrab qolish uchun tabibga yugurganligi tahsinga sazovordir. Natijada ona sog'lidan ajraldi uning badalini farzand qanday to'laydi, hech qachon! Hech bir kuch yo'qki onaning farzandida voz kechishga majbur qila oladigan. Onaning jigarbandiga bo'lgan muhabbati oldida boshqa barcha muhabbatlar tiz cho'kadi.

Asarda onaizor qancha qiyinchiliklar ko'rgan bo'lsa-da, yolg'onlarga, qahlarga, g'azablarga duch kelgan bo'lsa-da, ko'ngil yoshligi hech qachon yo'qolmaydi doimo ochiqko'ngil, mehribon, saxiy bo'lib qolaveradi. Buning isbotini "Qarz" hikoyasida ko'rishimiz mumkin. Ona o'z nafaqa pullariga qo'shnining bolalariga turli kiyim-kechaklar, velosipedlar olib sovg'a qilganligi beixtiyor nega degan savolni paydo qiladi. Chunki ona urush yillarida ko'p qiyinchiliklar ko'rgani, o'sha paytda yo'qchilik tufayli o'z farzandlariga yetarli narsalar olib berolmagani armonidan boshqa bolalar quvonchi uchun shunday ishlarni qiladi. Qissani o'qigan bo'lsangiz to'rt o'g'illari doimo bir – biring kiyimlarini kiyib katta bo'lishgan, bir kuni o'gliga yangi pufayka olib berish niyatida bir echkisini sotishga majbur bo'lishadi, ko'ryapsizmi kiyim olish uchun httoqi pullari bo'lmagan o'sha davrda ammo bozorda noinsof dallol va xaridor tufayli beshora ona yangi kiyim olib bera olmaydi farzandiga. Bu voqea "Dunyoning ishlari" qissasidagi "Bozor" hikoyasidan edi. Jamiyatta shunday battol kimsalar borki, pul uchun, o'z manfaati yo'lida o'z ota- onasidan, o'z bolasidan voz kechishga tayyor. Ular o'z nayranglari bilan sodda, halol, yo'qsil insonlarni aldashadi. Ularni norozi qilishadi va shunisi aniqki u yo'l bilan topilgan mollar hech qachon yaxshilik keltirmaydi.

Xususan, qissaning "Sovchilar" hikoyasida millatimizga xos bo'lgan milliy an'analar ochib berilgan. Ya'ni qizga sovchi bo'lib ayollarning kelishlari, ikki tomonning oilalari haqida mahallalaridan surishtirishlari hammasi ochiq oydin ko'rsatib berilgan. Ota-ona o'z farzandlarining kelajagi uchun har tomonni o'ylab, tekshirib, farzandining ko'ngliga qarab ish tutishadi. Bu ham ota-onalarning mehrini ko'rsatib beradi.

Asarda muallif onasining faqatgina o'ziga ko'rsatgan g'amxo'rligini emas balki, butun bolalar uchun - u qo'shnining bolasi bo'ladimi, yoki umuman begona uchun qilgan g'amxo'rligini ko'rsatib beradi. Ona baribir ona ekan.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ona timsoli jamiyatdagi muhim rolni aks ettiradi. Ona- mehr, himoya va sabr timsoli sifatida bolalar taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yozuvchi bu obraz orqali farzandlar va ona o'rtasidagi o'zaro aloqalar, onalarning o'z farzandlari uchun qiladigan fidokorligi va hayotiy qiyinchiliklar oldida tura olish qobiliyatini ko'rsatadi. Ona va bolalarning aloqalari, shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi o'zaro aloqalar, O'tkir Hoshimovning asarida markaziy mavzu sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa o'quvchini hayotda onaning o'rnini yanada chuqurroq anglashga undaydi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari Tosh O'qituvchi 2018
2. ONA <http://hidoya.uz>
3. S. Ahmad Ijod va jasorat 2000

